



PUL MABLAG'LARI HISOBI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Safarov Alisher

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0003-5890-3982

alilionsafarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag'lari hisobi, ularning aylanishi, kassa va bank operatsiyalarining tartibi hamda pul oqimlarini boshqarish samaradorligi tahlil qilingan. Pul mablag'lari harakati korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidlik darajasi va moliyaviy xavfsizligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, buxgalteriya standartlari va amaliyotda qo'llaniladigan usullar o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra pul oqimlarini rejalashtirish, nazorat qilish va optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: pul mablag'lari, kassa hisobi, bank hisobvaraqlari, likvidlik, pul oqimi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy boshqaruv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА И УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ СРЕДСТВАМИ

Сафаров Алишер

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. В данной статье проанализированы учет денежных средств в хозяйствующих субъектах, их обращение, порядок ведения кассовых и банковских операций, а также эффективность управления денежными потоками. Движение денежных средств является одним из ключевых факторов, определяющих финансовую устойчивость, уровень ликвидности и финансовую безопасность предприятия. В ходе исследования были изучены действующие нормативно-правовые документы, бухгалтерские стандарты и применяемые на практике методы. По результатам анализа были разработаны предложения по планированию, контролю и оптимизации денежных потоков.

Ключевые слова: денежные средства, кассовый учет, банковские счета, ликвидность, денежный поток, бухгалтерский учет, финансовое управление.

IMPROVING THE ACCOUNTING AND MANAGEMENT OF CASH FUNDS

Safarov Alisher

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article analyzes the accounting of cash funds in business entities, their turnover, the procedure of cash and bank operations, as well as the efficiency of cash flow management. Cash flow is considered one of the key factors determining the financial stability, liquidity level, and financial security of an enterprise. During the research, existing regulatory and legal documents, accounting standards, and methods applied in practice were examined. Based on the analysis results, proposals were developed for planning, controlling, and optimizing cash flows.

Keywords: cash funds, cash accounting, bank accounts, liquidity, cash flow, accounting, financial management.

Kirish.

Pul mablag'lari hisobi va ularning hisobotini yuritish har bir xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini belgilaydigan muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Mazkur jarayon korxonaning likvidligi, to'lovga layoqatliligi va investitsion jozibadorligi haqidagi aniq axborotlarni shakllantiradi. Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston iqtisodiyotida naqd pulsiz to'lovlarni kengaytirish, shaffoflikni oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish kabi islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Pul mablag'lari hisobi va uni boshqarishning to'g'ri tashkil etilishi korxonalar moliyaviy barqarorligining asosiy omilidir.

Biroq hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini boshqarishda ayrim kamchiliklar uchraydi. Xususan, naqd va naqdsiz hisob-kitoblar ustidan nazoratning yetarli emasligi, pul mablag'lari harakati bo'yicha tahliliy axborotning o'z vaqtida shakllanmasligi, byudjetlashtirish tizimining takomillashmaganligi va bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanmaslik kabi omillar korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pul mablag'lari hisobi va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlar asosida optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada pul mablag'larining iqtisodiy mohiyati, ularning buxgalteriya hisobini yuritish tamoyillari, korxonalardagi mavjud muammolar va ularni samarali boshqarishning takomillashtirilgan yo'nalishlari yoritib beriladi. Shuningdek, pul oqimlarini boshqarishning zamonaviy usullari, ularning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri ham nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Pul mablag'lari harakati va likvidlik boshqaruvi bo'yicha bir qator meyoriy hujjatlarda ta'riflar hamda ko'plab tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida turli yondashuvlarni asoslagan.

"Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" deb nomlangan 9-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS)da pul mablag'lari — tashkilotning naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek, bankdagi hisob-kitob, valuta va boshqa hisobvaraqlaridagi mablag'laridir deb ta'riflangan.

"Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" deb nomlangan 7-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS (IAS))ning 6-bandiga muvofiq pul mablag'lariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Pul mablag'lari naqd pul va talab qilib olin guncha depozitlarni o'z ichiga oladi". Pul mablag'larining ekvivalenti esa "qisqa muddatli, belgilangan summadagi pul mablag'lariga oson aylantiriladigan va qiymatining o'zgarishi jihatidan ahamiyatsiz darajadagi riskka ega bo'lgan yuqori likvidli investitsiyalar" deb ifodalangan.

Mahalliy olimlardan Prof. Xodiev (2018) "Pul mablag'lari – bu xo'jalik yurituvchi subyektning eng likvid aktivlari bo'lib, ular ishlab chiqarish, hisob-kitob va investitsion faoliyatni uzluksiz davom ettirishning kafolatidir." deb ta'riflagan.

Prof. Toshmatovning (2020) fikricha: "Pul mablag'lari hisobini to'g'ri yuritish hisob siyosatining markaziy elementidir va bu orqali to'lovlar tartibi, nazorati hamda budjet bilan hisob-kitoblar tizimi shakllanadi."

Prof. Raximov (2016) "Pul mablag'lari – korxona kassasi, bank hisobvaraqlari hamda boshqa to'lov vositalari ko'rinishidagi eng qisqa muddatda foydalanishga tayyor resurslardir." deb ta'rif keltirgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Anthony (2014) takidlashicha "Pul – bu korxonaning eng likvid resursi bo'lib, operatsiyalar va to'lovlar uchun darhol foydalanilishi mumkin bo'lgan mablag'lardir." deb takidlagan.

Dolgovaning (2017) tadqiqotlari bo'yicha, "Tashkilotning pul mablag'larini boshqarish uchun tanlangan usullari mavjud buxgalteriya ma'lumotlarini, pul mablag'lari va pul

ekvivalentlarining mavjud shakllarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida javobgarlik darajasini hisobga olishdir”, degan qarashni keltirib o‘tgan.

Horngren (2015) “Pul mablag‘larini boshqarish – yetarli likvidlikni ta‘minlagan holda, bo‘sh mablag‘larning bekor yotib qolishini kamaytirishga qaratilgan jarayondir.” deb tariflagan. Yuqoridagi pul mablag‘lari hisobiga oid bir qator meyoriy hujjatlarda ta‘riflar hamda ko‘plab tadqiqotchilar fikrlari va mulohazalaridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha “Pul mablag‘lari – bu korxonaning kassadagi naqd pullari, bank hisobvaraqa va ekvivalentlarda saqlanayotgan, darhol to‘lov uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan eng likvid aktivlar bo‘lib, xo‘jalik faoliyatining barqaror davom etishini ta‘minlaydi hamda pulni boshqarish faqat hisob yuritish emas, balki strategik moliyaviy qarorlar qabul qilishni o‘z ichiga oladi.” deb umumiy xulosa qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishimizda: qiyosiy, statistik, grafik tahlil hamda induksiya/deduksiya usullardan foydalanildi. Pul mablag‘larini amaldagi holatini normativ talablar bilan solishtirib, pul oqimlari hisoboti, kassa kitobi, bank ko‘chirmalarini va pul mablag‘lari aylanishi qonuniyatlarini tahlil qilib, mavjud muammolar o‘rganildi natijada ilmiy amaliy takliflar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Pul mablag‘lari bu korxonaning pul shaklida ifodalangan aktivlari bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- korxona kassasidagi naqd pul;
- banklardagi hisob-kitob schyotlaridagi pul mablag‘lari (milliy va xorijiy valyutada);
- banklardagi maxsus schyotlardagi pul mablag‘lari;
- akkreditivlardagi pul mablag‘lari;
- chek daftarchalaridagi pul mablag‘lari;
- yo‘ldagi pul mablag‘lari;

Korxonadagi pul mablag‘lari hajmi uning to‘lovga qobiliyati darajasini belgilaydi, bu esa uning moliyaviy holatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Pul mablag‘lari doimiy harakatda bo‘ladi va kirim hamda chiqim pul oqimlarini shakllantiradi. Pul mablag‘lari yordamida: tovar va xizmatlar xaridi uchun yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar, xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, budjet va budjetdan tashqari fondlar bilan hisob-kitoblar, banklar bilan hisob-kitoblar, xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Korxonaning to‘lovga qobiliyati uning mavjud pul mablag‘lari orqali o‘z vaqtida joriy majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga qarab aniqlanadi. Biroq, pul mablag‘larining ortiqcha zaxirasi ularning aylanishini sekinlashtiradi, inflyatsiya sharoitida esa ularning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli korxonada pul oqimlarini samarali boshqarish zarur. Bunday boshqaruv tizimini shakllantirish esa pul mablag‘lari buxgalteriya hisobining to‘g‘ri va sifatli tashkil etilishiga bog‘liq. Aniqlik bilan yuritilgan hisob korxonaning pul mablag‘lari hajmi va oqimidagi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berish hamda salbiy oqibatlarni bartaraf etish bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Pul mablag‘lari hisobi bo‘yicha buxgalteriyaning asosiy vazifalari:

1. Naqd va naqdsiz pul mablag‘lari bo‘yicha operatsiyalarni hujjatlashtirishning to‘g‘riligi, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilish, ularni hisobda o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirish;

2. Pul mablag‘lari va hujjatlarning saqlanishini ta‘minlash, muntazam inventarizatsiya o‘tkazish, natijalarni aniqlash hamda yetishmovchiliklar bo‘yicha javobgar shaxslardan undirishni tashkil etish;

3. Barcha to'lov va tushumlar bo'yicha hisob-kitoblarning to'liqligi, aniqligi va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash, debitor qarzdorlikni undirish va kreditor qarzdorlikni qoplash;

4. Bo'sh turgan pul mablag'laridan samaraliroq foydalanish va ularni foydali yo'nalishlarga joylashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

Yuqoridagi vazifalar pul mablag'lari hisobining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. U pul oqimlarini boshqarish, ularning saqlanishi, qonuniyligi va samaradorligini ta'minlash, korxonaning uzluksiz faoliyat yuritishi uchun doimiy to'lovga qobiliyatni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. "Mega quruvchi" MCHJning 2024-yildagi pul oqimlari quyidagicha o'rganildi:

1-jadval

2024-yil pul mablag'lari harakati (ming so'mda)

Oy	Operatsion oqim	Investitsion oqim	Moliyaviy oqim	Sof oqim	Yakuniy qoldiq
Yanvar	+85000	-30000	-15000	+40000	120000
Fevral	+92000	-35000	-10000	+47000	167000
Mart	+78000	-40000	-20000	+18000	185000
April	+82000	-25000	-15000	+42000	227000
May	+70000	-45000	+10000	+35000	262000
Iyun	+91000	-20000	-5000	+66000	328000

Manba: "Mega quruvchi" MCHJning 2024-yildagi pul oqimlari to'grisidagi moliyaviy hisoboti malumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki, Operatsion oqimlar doimiy ijobiy va barqaror. Investitsion oqimlarning salbiy bo'lishi – korxonaning o'sish va yangilanish faoliyatini aks ettiradi. Yakuniy pul qoldig'i har oy oshib borgan.

2-jadval

Kassa limiti va haqiqiy qoldiq taqqoslanishi

Oy	Kassa limiti (mln so'm)	Haqiqiy qoldiq	Farq	Holati
Yanvar	30	27	-3	Normal
Fevral	30	31	+1	Limitdan oshgan
Mart	30	29	-1	Normal
April	30	33	+3	Limitdan oshgan
May	30	26	-4	Normal
Iyun	30	35	+5	Limitdan oshgan

Manba: "Mega quruvchi" MCHJning 2024-yildagi pul oqimlari to'grisidagi moliyaviy hisoboti malumotlari asosida muallif ishlanmasi.

"Mega quruvchi" MCHJning 2024-yildagi kassa operatsiyalari o'rganilib tahlil qilinganda hisob siyosatida kassa limiti 30 mln so'm qilib belgilangan ammo 3 oy davomida kassa limiti buzilgan va ortiqcha mablag'lar bankka o'z vaqtida topshirilmagan. Tahlil asosida kassada limitdan ortiq pul saqlanishi, pul oqimlari prognozining yo'qligi, elektron to'lov tizimlaridan foydalanish pastligi, bank bilan hisob-kitoblarda kechikishlar mavjudligi va ichki nazorat yetarli darajada faoliyatni to'g'ri tashkil qilmaganliklari aniqlandi. Pul mablag'lari boshqaruvi korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligining markazida turadi. Tahlil natijalari ko'rsatdiki, korxonada pul oqimlari barqaror bo'lsada, nazorat va rejalashtirishda kamchiliklar mavjud.

Xulosa va takliflar.

Pul mablag'lari korxonaning eng muhim likvid resurslaridan biri bo'lib, uning joriy faoliyati, to'lovga qobiliyati hamda moliyaviy barqarorligining asosiy mezonidir. Pul oqimlarining to'g'ri boshqarilmaganligi korxonada likvidlik tanqisligining yuzaga kelishiga, qarzдорlikning ortishiga, ishlab chiqarish jarayonlarining uzilishiga va natijada moliyaviy ko'rsatkichlarning yomonlashuviga olib keladi. Shu sababli pul mablag'lari hisobi va ularni boshqarish mexanizmlarining takomillashtirilishi korxonalar uchun uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydigan strategik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda pul mablag'lari hisobining to'g'ri yuritilishi nafaqat nazoratning kuchayishiga, balki qaror qabul qilish jarayonida ishonchli va tezkor axborot bilan ta'minlanishiga olib keladi. Pul oqimlarini tizimli ravishda rejalashtirish va monitoring qilish korxonaga bo'sh turgan mablag'larni investitsiyaviy faoliyatga yo'naltirish imkonini beradi, ortiqcha mablag'lar to'planib qolishining oldini oladi, debitor va kreditor qarzдорliklaridan kelib chiqadigan xavflarni minimallashtiradi. Bundan tashqari, raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining joriy etilishi pul harakatini shaffof, aniq va nazorat qilinadigan jarayonga aylantiradi.

Umuman olganda, pul mablag'larining hisobini takomillashtirish — korxonada moliyaviy boshqaruv tizimini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Pul mablag'lari hisobi va boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni beramiz:

1. Pul oqimlarini rejalashtirish va byudjetlashtirish tizimini joriy etish. Korxona bo'yicha kassa byudjeti, naqd pul harakati byudjeti va to'lov kalendarini tuzish. Qisqa muddatli va o'rta muddatli likvidlikni boshqarish uchun pul oqimlari prognozini muntazam yangilab borish.

2. Pul mablag'lari hisobi ustidan ichki nazoratni kuchaytirish. Kassa operatsiyalari bo'yicha ikki bosqichli tekshiruv tizimi (birinchi daraja — buxgalter, ikkinchi daraja — ichki auditor) joriy etish. Bank operatsiyalarida ruxsat etilgan limitlar va elektron tasdiqlash tizimidan foydalanish.

3. Debitorlik va kreditorlik qarzдорliklarini optimallashtirish. Debitorlik qarzдорlik bo'yicha muddatni uzaytirish holatlariga yo'l qo'ymaslik, kechiktirilgan to'lovlar uchun jarima mexanizmlarini qo'llash. Kreditorlik qarzдорlikni boshqarishda chegirmalardan samarali foydalanish, imtiyozli muddatli shartnomalar tuzish.

4. Bo'sh pul mablag'larini investitsiyaviy yo'nalishlarga jalb qilish. Bank depozitlari, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar yoki yuqori darajadagi likvid moliyaviy instrumentlarga yo'naltirish. Mablag'lardan foydalanish samaradorligini o'lchovchi ko'rsatkichlar (ROI, ROA) asosida tahlil qilish.

5. Hisob-kitob jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish. Elektron kassa tizimlari, onlayn-bank xizmatlari va ERP dasturlarini joriy etish. Pul oqimlari bo'yicha avtomatik monitoring, ogohlantirishlar va hisobotlar shakllantirish tizimini yo'lga qo'yish.

6. Pul mablag'lari zaxirasi siyosatini takomillashtirish. Korxona uchun optimal naqd pul zaxirasi me'yorini ishlab chiqish. Zaxira yetishmovchiligi va ortiqcha mablag'lar xavfini kamaytirish bo'yicha mexanizmlar joriy etish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Anthony, R. (2014) *Management Accounting*. New York: McGraw-Hill.

Horngren, C. (2015) *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 15th edn.

International Accounting Standards Board (IASB) (n.d.) *Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS (IAS) 7) "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"*.

O'zbekiston Respublikasi (2016) *O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Qonuni, 13-aprel, O'RQ-404-son*.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (9-son BHMS) (n.d.) "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot".

Raximov, S.M. (2016) Buxgalteriya hisobining nazariy asoslari.

Toshmatov, M. (2020) Pul oqimlari va ularni boshqarish. Ilmiy maqola.

Xodiev, A.X. (2018) Buxgalteriya hisobi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

Долгова, М.А. (2017) 'Проблемы в управлении денежными потоками', Символ науки, 12, p. 48.